



ISSN: 2181-0796
DOI: 10.26739/2181-0796
www.tadqiqot.uz

**TIL, TA'LIM, TARJIMA
XALQARO JURNALI**

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ
ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД**

**INTERNATIONAL JOURNAL OF
LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION**



Alisher Navoi



**VOLUME 3
ISSUE 4**

2022

TIL, TA'LIM, TARJIMA

3-SON, 5-JILD

ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД

НОМЕР-3, ВЫПУСК-5

LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

VOLUME-3, ISSUE-5



TOSHKENT-2022

T I L S H U N O S L I K

| | |
|---|----|
| 1.Rasulov R., Murodova F. FE'L ASOSLI GAPLARNING OBYEKT VALENTLIGI..... | 7 |
| 2.Пардаев З. ЎЗБЕК ТИЛИДА НУТҚИЙ АКТЛАРНИНГ БАҲО БИЛАН ПРАГМАТИК ҚАТЛАМЛАНИШИ..... | 17 |
| 3.Safarov F. O'ZBEK ADABIY TILI GRAMMATIK QURILISHINING TAYANCH UNSURI..... | 26 |
| 4.Рўзиев Я. ЎЗЛАШТИРМА НУТҚНИНГ МОРФОЛОГИК ТУРИ ВА УНИНГ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ (ЎЗБЕК ВА НЕМИС ТИЛЛАРИ МИСОЛИДА)..... | 35 |
| 5.Nigmatova L. SISTEMAVIYLIKNING FORMAL-FUNKSIONAL TUSHUNILISHI..... | 46 |
| 6.Botirova A. GRAMMATIK O'QUV LUG'ATLARI TUZISH VA ULARDAN FOYDALANISH BO'YICHA TAVSIYALAR..... | 57 |
| 7.Жаббарова Ю. ҚАРИНДОШЛИК ТЕРМИНОЛОГИЯСИ МУҲИМ ЭТНОГРАФИК ВА ТАРИХИЙ МАНБА СИФАТИДА..... | 65 |
| 8.Долиева Л. "ЭМОЦИЯ"НИНГ ФАНЛАРАРО РАКУРСИДАГИ ИЧКИ ВА ТАШҚИ ТАСВИРИ..... | 72 |
| 9.Гапбаров А. ПУБЛИЦИСТИК МАТННИНГ СОЦИОЛИНГВИСТИК ТАДҚИҚИ..... | 86 |
| 10.Urokov X. KUN.UZ IJTIMOIIY TARMOQ XABAR MATNLARINING SOTSIOLINGVISTIK TANLILI..... | 94 |

T A' L I M S H U N O S L I K

| | |
|--|-----|
| 11.Юсупова З. РОЛЬ ЦИФРОВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В СОВРЕМЕННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ..... | 102 |
| 12.Qodirov U. CHET TIL DARSLARIDA KULTUROLOGIK YONDASHUV..... | 112 |
| 13.Юсупова З. ЦИФРОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ ПЕДАГОГА КАК КОМПОНЕНТ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И ПОКАЗАТЕЛЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО МАСТЕРСТВА..... | 121 |

T A R J I M A S H U N O S L I K

| | |
|---|-----|
| 14.Юлдашева Д. ВКЛАД АМЕРИКАНСКОГО ЛИНГВИСТА ЭДВАРДА СЕПИРА В СОВРЕМЕННОЕ ЯЗЫКОЗНАНИЕ..... | 130 |
|---|-----|

ТИЛ, ТАЪЛИМ, ТАРЖИМА ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

Safarov Firuz

o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida doktoranti,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent,
Buxoro davlat universiteti,
Buxoro, O'zbekiston,
1sfs2012@mail.ru

O'ZBEK ADABIY TILI GRAMMATIK QURILISHINING TAYANCH UNSURI

ANNOTATSIYA

Maqolada o'zbek adabiy tili grammatik qurilishining tayanch unsuri haqida so'z boradi. Grammatik qurilishning tayanch unsuri sifatida grammatik kategoriya, grammatik-leksik va funksional-semantik maydonning xususiyati bayon qilinadi. Grammatik kategoriya a'zosi soni, a'zolarining o'zaro mazmun munosabati, vositalari tilning qaysi bo'limiga mansubligi, tuzilishining milliy o'ziga xosligi, tilning morfologik tuzilishi bilan bog'liqligi, grammatik-leksik va funksional-semantik maydonning tuzilishi, vositalariga doir fikrlar tahlil qilinadi. 80-yillarda tilshunoslikda grammatik kategoriya a'zolari orasida faqat oppozitsiya emas, nooppozitiv farqlanish ham mavjudligi e'tirof etilganligi aytiladi. Grammatik kategoriya tuzilishi, aniqrog'i shakllarining o'zaro mazmuniy aloqa-munosabati tilning morfologik turiga bog'liq deyilishidan agglutinativ tillarga nisbatan grammatik kategoriyaga beriladigan ta'rif flektiv tillarning xususiyatini aks ettiruvchi ta'rifdan farq qilishi lozimligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: grammatik qurilishning tayanch unsuri, grammatik kategoriya, grammatik shakl, umumiy grammatik ma'no, oppozitsiya, nooppozitiv farqlanish, umumiy grammatik ma'noning ko'rinishlari, grammatik-leksik maydon, funksional-semantik maydon, maydon yadrosi, maydon chekka qismi.

Safarov Firuz

a doctoral student of the Department of
Uzbek Linguistics and Journalism,
Candidate of Philological Sciences, Associate Professor,
Bukhara State University,
Bukhara, Uzbekistan
1sfs2012@mail.ru

THE BASIC ELEMENT OF GRAMMATICAL STRUCTURE OF THE UZBEK LITERARY LANGUAGE

ABSTRACT

The article deals with the basic elements of the grammatical structure of the Uzbek literary language. The basic element of grammatical construction is the grammatical category, the nature of the grammatical-lexical and functional-semantic field. The number of members of the grammatical category, the relationship of the content of the members, the means to which the language belongs, the national identity of the structure, the relationship with the morphological structure of the language, the structure of the grammatical-lexical and functional-semantic field, the ideas on the means are analyzed. It is said that in the 80s of linguistics it was recognized that between the members of the grammatical category there is not only opposition, but also a nonopposite difference. Based on the fact that the structure of a grammatical category, more precisely, the semantic relationship of its forms depends on the morphological type of the language, it is substantiated that the definition of a grammatical category in relation to agglutinative languages should differ from the definition that reflects the features of inflectional languages.

Keywords: basic element of grammatical structure, grammatical category, grammatical form, general grammatical meaning, opposition, nonopposite differentiation, manifestations of general grammatical meaning, grammatical-lexical field, functional-semantic field, field core, field edge.

Сафаров Фируз

докторант кафедры узбекского языкознания и журналистики,
кандидат филологических наук, доцент,
Бухарский государственный университет,
Бухара, Узбекистан,
1sfs2012@mail.ru

БАЗОВЫЙ ЭЛЕМЕНТ ГРАММАТИЧЕСКОГО СТРОЯ УЗБЕКСКОГО ЛИТЕРАТУРНОГО ЯЗЫКА

АННОТАЦИЯ

В статье идёт речь о базовом элементе грамматического строя узбекского литературного языка. В качестве базового элемента грамматического строя описываются грамматическая категория, грамматико-лексическое и функционально-семантическое поля. Анализируются мнения о количестве членов грамматической категории, об отношении ее членов, о том, к какой части языка относятся ее средства, национальная специфика ее строения, ее связь с морфологическим строением языка, строение грамматико-лексического и функционально-семантического поля. Говорится о том, что в 80-х годах языкознании было признано, что между членами грамматической категории существует не только оппозиция, но и неопозитивное различие. Исходя от того, что структура грамматической категории, точнее, смысловое отношение ее форм зависит от морфологического типа языка, обосновывается, что определение грамматической категории по отношению к агглютинативным языкам должно отличаться от определения, отражающее особенности флективных языков.

Ключевые слова: базовый элемент грамматического строя, грамматическая категория, грамматическая форма, общее грамматическое значение, оппозиция, неопозитивное различие, виды общего грамматического значения, грамматико-лексическое поле, функционально-семантическое поле, ядро поля,

периферия поля.

Tilning grammatik qurilishi tilshunoslikda turli maktab va oqim tomonidan o'rganilsa ham uning asosiy birligi, tayanch unsuri xususida yagona fikr yo'q [1, 65].

An'anaviy tilshunoslik tarafdorlaridan ko'pchiligi grammatik binoning tayanch unsurini kategoriya deb nomlaydi. Bu nuqtayi nazar rus va sho'ro tilshunosligida keng tarqalgan. O'zbek tilshunosligi yaqingacha sho'ro tilshunosligining tarkibiy qismi bo'lganidan unda ham ana shu nuqtayi nazar ustuvor [1, 66].

Kategoriya atamasi tilshunoslikka falsafadan kirgan. U falsafada "obyek-tiv borliq va bilishdagi mohiyatan ko'proq qonuniy aloqa va munosabatni aks ettiruvchi umumiy tushuncha" tarzida ta'riflanadi. Falsafada ham, tilshunoslikda ham kategoriya bir xil narsani ataydi, ya'ni kategoriya uchun juftlik va alohidalik bo'lishi shart [2, 223]. Grammatik kategoriya uchun birlashtiruvchi asos vazifasini umumiy grammatik ma'no bajaradi [3, 317]. Masalan, son kategoriyasining umumiy ma'nosi mavjudot miqdorini ko'rsatish, zamon kategoriyasini ish-harakatning nutq paytiga munosabatini ifodalash va hokazo. Ma'lum umumiy grammatik ma'no tilda grammatik vosita bilan ifodalangandagina bu tilda shunday grammatik kategoriya bor deb e'tirof etish mumkin [3, 318].

Grammatik qurilishning tayanch unsuri kategoriya deb qaraladigan ishlarda u bilan bog'liq ko'pchilik masala xususida yagona fikr mavjud emas. Uning a'zosi soni, a'zolarining o'zaro mazmun munosabati, vositalari tilning qaysi bo'limiga mansubligi, tuzilishining milliy o'ziga xosligi, tilning morfologik tuzilishi bilan bog'liqligi, barcha til uchun mushtarakligi, tasnifi, chegarasi shular jumlasidandir. Bu masalalar bahstlab bo'lganidan har qaysisi alohida sharhlashni taqozo etadi [1, 66]. Ularning ayrimini qisqacha sharhlaymiz. Grammatik kategoriya a'zosining soni masalasida ikki xil qarash bor. Birinchi qarashga ko'ra grammatik kategoriya kamida ikkita a'zodan tuziladi [4, 152], ikkinchisiga ko'ra bitta shakldan ham iborat bo'ladi [5, 28].

Mazkur masalaga turkshunos olimlardan V.G.Guzev va D.M.Nasilov ikkita maqola [12; 5] bag'ishlagani e'tiborga loyiq. Bu olimlar birinchi maqolada grammatik kategoriya kamida ikkita a'zodan iborat bo'ladi deb so'z birikmasini grammatik shakl hisoblasa [12], ikkinchi maqolada grammatik kategoriya bir a'zoli bo'ladi deb uni grammatik shakl bilan tenglashtiradi [5]. Keyingi holda grammatik kategoriyaga ta'rif ham berilmaydi. Shunisi qiziqki, ikkala fikr ham turkiy tillarning flektiv tillardan farqli o'laroq agglutinatив xususiyatini aks ettiradi deb da'vo qilinadi. Shuni aytish joizki XI-XII asarlarda yaratilgan turkiy yozma yodgorliklarda bir a'zoli grammatik kategoriya uchramaydi [6, 156]. G'.Zikrillayev ham hozirgi turkiy tillarda ham bunday kategoriya borligini biror ishda uchratmadik deb yozadi [1, 68].

Grammatik kategoriyani ajratish va tavsiflashda har bir tilning ichki tuzilishidan kelib chiqib yondashish lozim. Chunki turli oilaga mansub tillarning morfologik tuzilishi bir-biridan keskin farq qiladi [5, 23].

Shuni ta'kidlash joizki bu ibratomuz fikr bundan qariyb ikki asr oldin nazariy tilshunoslik asoschisi V.Humbolt tomonidan bayon qilingan edi. V. Humboltning fikricha tilning ijtimoiy tabiati milliy bo'lib kishilarning ong va qalbida joylashgan xususiyatdir. Ana shu ruhiy, aqliy, idrokiy xususiyat umumbashariy (mantiqiy, logik) yoki xususiy emas, umumxalq lisoniy tafakkuridir: "Xalqning tili uning ruhi (Geist, dux) demakdir, xalqning ruhi esa uning tili demakdir" [7, 26; 8, 68].

V.Humboltdan keyin o'tgan ko'pchilik tilshunos olim shu masalaga e'tibor bergan. Masalan, Boduen de Kurtene "o'ylab ko'rmay bir tilda boshqa tildagi kategoriya bor deb qarash g'ayriilmidir" [9, 68] degan. Biroq sho'ro davrida o'zbek tilshunosligida bu ko'rsatmaga amal qilinmadi. Jumladan, o'zbek tilida ham rus tilidagidek vid kategoriyasi bor deb akademnashrga kiri-tildi [10, 425 - 427]. Aksincha, o'zbek tilining o'ziga xosligini aks

ettiruvchi hurmat, harakat tarzi ma'nolari grammatik kategoriya sifatida ajratilmadi.

Ikki tilda mavjud, bir xil nomlanadigan grammatik kategoriya ham ichki tuzilishi, mazmuni, qo'llanishiga ko'ra farqlanishi mumkin. Masalan, rus tilida son kategoriyasi shakllari ikki xil: formal sintaktik va mazmuniy (logik) vazifa bajaradi. Shuning uchun bu tilda otning o'zak-negizi miqdor ma'nosiga munosabatidan qat'i nazar formal son (birlik yoki ko'plik) shaklida bo'lishi shart [12, 100]. Shunga ko'ra biror ot birlik (yoki ko'plik) son shaklida bo'lsa u albatta bitta (yoki birdan ortiq) mavjudotni ifodalaydi deb bo'lmaydi [11, 63]. Turkiy tillarida esa son kategoriyasi shakllari faqat mazmuniy vazifa bajaradi [12, 100]. Binobarin o'zbek tilida sonni logik va grammatik (formal) deb ikkiga ajratib birinchisi grammatikada o'rganilmaydi deyish to'g'ri emas. Biroq o'zbek tilshunosligida rus va o'zbek tilidagi mazkur farq inobatga olinmay tub ot birlik yoki ko'plikni ifodalashidan qat'i nazar grammatik birlikni bildiradi deb talqin qilindi. Shunga o'xshash turlanish otga xos deb kelishik kategoriyasi ot turkumi doirasida, tuslanish fe'lga xos deb shaxs-son kategoriyasi fe'l turkumi tarkibida berildi. Vaholanki, o'zbek tilida tuslanish otga, turlanish fe'lga ham xos [13, 11 - 12]

Grammatik kategoriya kamida ikki a'zoli bo'ladi degan qarash taraf-dorlari tomonidan uning a'zolari orasidagi mazmuniy aloqa-munosabat turlicha talqin qilinadi.

An'anaviy tilshunoslik vakillari grammatik kategoriyaning grammatik ma'no va shakl birligi sifatida olib qaraydi. Akad. L.V.Sherba grammatik kategoriyaning mavjudligi grammatik shakl va grammatik ma'noning uzviy bog'liqligini taqozo qiladi. Shakl va ma'no bir-biridan ajratilganda grammatik kategoriya mavjud bo'lmaydi [15, 8] desa I. P. Ivanova bir turdagi grammatik ma'no ifodalaydigan shakllar grammatik kategoriya hosil qiladi [15, 7] deb yozadi. Bunday qarash o'zbek tilshunosligida jumladan O'zbek tili darsligida aks etgan: "O'zaro zich bog'langan bir sistemani tashkil qiluvchi grammatik shakllarning yig'indisi grammatik kategoriya deyiladi" [16, 84].

Ko'rinadiki ikki ta'rifda grammatik kategoriya shakllarining mazmun munosabati aytilmasa, bir ta'rifda bir turdagi ma'no ifodalashi aytilib, ular orasidagi umumiylik, mushtaraklik ko'rsatiladi. Bir guruh olim grammatik kategoriya a'zolarining mazmunan farqlanishiga urg'u beradi. Bu nuqtayi nazar sho'ro germanisti D.A.Shtelingning quyidagi ta'rifida o'z ifodasini topgan: "Grammatik qategoriya mazmunan bir-birini inkor etadigan ikki (faqat ikki) qator yoki guruh shakl oppozitsiyasi damakdir" [17, 59]. Ma'lumki, tilshunoslikda oppozitsiya farqlanishniig o'ziga xos turi sifatida qaraladi [18, 40; 19, 176; 20, 38].

Mazkur nuqtayi nazar S.N.Trubetskoyning privativ oppozitsiyasi bilan bog'liq bo'lib uni grammatikaga dastlab R. O. Yakobson tatbiq qilgan, A. V. Isachenko yanada rivojlantirgan [4, 10]. O'zbek tilshunosligida bu nuqtayi nazar Y. Saidov ishlarida o'z aksini topgan [21].

Grammatik kategoriya shakllari orasidagi mazmuniy aloqa-munosabat birgina privativ oppozitsiyadan iborat bo'ladi deb qarash ko'pchilik olim tomonidan e'tirof etilmadi. Negaki bunday holda grammatik shaklning paradigmatic va sintagmatic xususiyatini farqlash e'tibordan chetda qoladi. Holbuki grammatik shaklning markaziy va nomarkaziy (periferiyadagi) shuningdek uslubiy va betaraf (neytral) ma'nolarini ajratishda mazkur xususiyati muhim rol o'ynaydi [4, 157]. Bundan tashqari ko'p a'zoli grammatik kategoriyalarni faqat ikki qatorga bo'lish tilning tabiatiga mos kelmaydi [22, 49], grammatik kategoriya sistemasini o'rganishda sun'iylikka olib keladi [23, 94].

Ko'pchilik sho'ro tilshunosi tomonidan grammatik kategoriya a'zolari orasida S.I.Trubetskoy oppozitsiyasining ikkinchi turi, ya'ni ekvipolent oppozitiv munosabat mavjud deb qaraladi. Bu nuqtayi nazar tarafdorlaridan aksariyatini quyidagi ikki ta'rif birlashtiradi: "Bir-biriga qiyosan olinadigan (opozitsiya hosil qiladigan) ikki yoki undan ortiq grammatik ma'no bilan shu ma'nolarni ifodalovchi shakllar birgalikda grammatik kategoriyaning hosil qiladi" [24, 6; 25, 211].

"Morfoloqik kategoriya bir turdagi (однородный) ma'noga ega bo'lgan grammatik

shakllarning o'zaro zid qatorlari sistemasidan iborat" [23, 4]. Birinchi ta'rifda grammatik kategoriya shakllari orasidagi farqlanish ta'kid-langani bo'lsa, ikkinchi ta'rifda u bilan birga mazkur shakllarning umumiy ji-hati ham ko'rsatilgan.

Prof.H.G'.Ne'matov grammatik kategoriyaa'zolari orasidaham pri-vativ ham ekvipolent oppozitiv munosabat mavjud deb qaraydi [26, 4-5].

Prof. A. Nurmonovning fikricha til sistemasining barcha unsuri (elementi) o'zaro oppozitiv munosabatda bo'ladi [27, 128].

80-yillarga kelib sho'ro tilshunosligida grammatik kategoriya sistemasining tuzilishi haqida yangicha nuqtayi nazar bayon qilindi. Bu nuqtayi nazarga ko'ra grammatik kategoriya a'zolari orasida faqat oppozitsiya emas, nooppozitiv farqlanish ham mavjud [28, 17-28]. Grammatik kategoriya a'zolari orasidagi mazmuniy aloqat-munosabatning bunday talqin qilinishi natija-sida grammatik kategoriyaga boshqacha ta'rif beriladi: Grammatik kategoriya umumiy (родовое) ma'no asosida birlashuvchi grammatik shakllar sistemasidir; umumiy ma'no kategoriya shakllarida xususiy (видовое) ma'no tarzida namoyon bo'ladi; xususiy ma'nolar orasida oppozitiv munosabat bilan birga nooppozitiv farqlanish ham mavjud. Grammatik kategoriya strukturasi tilning qurilishiga qarab boshqacha bo'lishi mumkin [28, 24]. Bu ta'rifda flektiv tillariing xususiyati inobatga olingan bo'lib unga quyidagi tipologik ta'rif asos bo'lgan: grammatik kategoriya strukturasi tilning morfologik turiga bog'liq bo'lgan grammatik shakllar sistemasi orqadi izchil ifodalanuvchi umumlashgan ma'nodir [29, 5]. Grammatik kategoriya tuzilishi, aniqrog'i shakllarining o'zaro mazmuniy aloqa-munosabati tilning morfologik turiga bog'liq deyilishidan agglutinativ tillarga nisbatan grammatik kategoriyaga beriladigan ta'rif flektiv tillarning xususiyatini aks ettiruvchi ta'rifdan farq qilishi lozimligi anglashildi. O'zbek tilshunosligida grammatik kategoriyaga berilgan quyidagi ta'rifda shu talab inobatga olingan: Grammatik kategoriya ikki va undan ortiq shakl sistemasi orqali turli daraja va ko'rinishda ifodalanuvchi umumlashgan ma'nodir [30, 19]. Ko'rinadiki, bu ta'rifda oppozitsiya tushunchasiga murojaat qilinmagan.

Tilning grammatik qurilishini funksional yondashuvga asoslanib o'rgana-digan olimlarning ko'pchiligi grammatik kategoriya atamasini ishlataveradi. Ayrim tadqiqotchi esa bunday holda morfologik yoki grammatik kategoriyadan kengroq tushuncha anglatuvchi atamadan foydalanishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Jumladan, A.V.Bondarko funksional-semantik kategoriya [23, 8] va funksional-semantik maydon atamalarini ishlatadi [32; 33].

Maydonni grammatik qurilishning tayanch unsuri deb qarash 20-asrning birinchi choragida Germaniyada boshlangan bo'lib alohida sharhni talab qiladi.

Adabiyotlarda maydon (G'eld, pole) aslida fizikaga xos atama bo'lib [34, 7], tilshunoslikda dastlab 1924- yilda G.Ipsen tomonidan qo'llanilgani ko'rsatiladi [35, 9]. Maydon tushunchasini asoslash G.Ipsendan tashqari I.Trir, Z.Portsig, L.Vaysgerber kabi nemis olimlari nomi bilan bog'liq. Mazkur olimlar maydon tushunchasiga asoslanib tilning lug'ati va sintaksisini tadqiq qiladi.

60-yillardan sho'ro tilshunosligida maydon atamasi tilning grammatik tuzilishiga nisbatan ishlatila boshlandi. Jumladan, M. M. Guxman maydon morfologik hodisa bo'lmish grammatik kategoriya hamda u bilan mazmun-vazifaviy jihatdan umumiylikka ega bo'lgan so'z birikmalarini ham qamrab oladi deb hisoblab, uni grammatik maydon deb nomlaydi [4]. Y. V. Guliga va Y. I. Shendels grammatik hodisalarning lug'aviy vositalar bilan mazmunan mushtarakligi va bog'liqligiga asoslanib, grammatik-leksik maydon atamasidan foydalanadi [35].

Rus tili tadqiqotchisi A.V.Bondarko funksional-semantik maydon atamasini qo'llaydi. U maydon tushunchasini tilning grammatik qurilishiga asoslanib talqin qiladi. Grammatik qurilish o'z ichiga bir sathga mansub sistemalarnigina emas, semantik-funksional jihatdan birlashadigan sathlararo, turli sathga mansub grammatik va u bilan bog'liq lug'aviy unsurlarni

ham oladi 33, 22]. FunkSIONAL-semantik maydon - muayyan tilning mazmuniy vazifa umumiyliigi va o'zaro ta'siri asosida birlashadigan turli sathga mansub (morfologik, sintaktik, so'z yasovchi, leksik, shuningdek, aralash - leksik-sintaktik va h.k.) vositalari sistemasidir 33, 21-22]. Uning ko'rsatishicha funksional-semantik maydonning asosiy belgilari unga mansub lisoniy vositalarda: 1) umumiy invariant mazmuniy vazifaning mavjudligi, 2) turlicha (grammatik, lug'aviy) unsurlarning o'zaro tahsiri, 3) tuzilishi jihatdan markaz (yadro) va chekka qismga bo'linishi, 4) mazkur maydon va turli maydonga mansub unsurlar orasida uzviy o'tishlar, qisman kesishish nuqtalarining mavjudligidan iborat 31, 204].

Maydon markazi vositasida mazkur guruhning o'ziga xos xususiyatlari jamlangan, yuqori darajada uyushgan bo'lib, muayyan mazmuniy vazifani bajarish uchun ko'proq xoslangan va muntazam qo'llanadi. Chekka qism vositalarida esa maydonga xos belgilar uyushmagan, tarqoq holda bo'lib, mazmuniy vazifani bajarishda ikkinchi darajali rol o'ynaydi hamda izchil qo'llanish xususiyatiga ega emas 31, 213-217].

Markaz (yadro) vositasi tilning qaysi bo'limiga mansubligiga ko'ra maydon tuzilishi ikki xil bo'lishi mumkin: grammatik kategoriyaga tayanadigan bir markazli (kuchli markazlashgan) maydon va turli lisoniy (morfologik, sintaktik, leksik-grammatik) vositalar majmuasiga tayanadigan ko'p markazli (kuchsiz markazlashgan) maydon. Jumladan, rus tilidagi aspektuallik, temporallik, modallik, personallik kabi maydonlar bir markazli bo'lsa, holat, aniqlik-noaniqlik, sifat, miqdor, sabab, shart kabi maydonlar ko'p markazlidir 33, 61-62].

Funksional-semantik maydon yadrosi va chekka qismi o'rtasida mazmuniy vazifaning o'ziga xos taqsimlanishi amalga oshadi. Bu vazifaning bir qismini yadro o'z zimmasiga olib, chekka qism vositalariga batafsillashtirish, aniqlashtirish vazifasini havola qiladi. Chekka qism vositalari bundan tashqari mazmuniy vazifaning yadro o'z zimmasiga olmagan qismini ham ifodalash uchun xizmat qiladi. Shunga ko'ra ma'lum vazifani bajarishda til vositalarining tejalishiga erishiladi 23, 26].

A. V. Bondarko funksional-semantik maydonni nazariy jihatdan tadqiq qilar ekan, uning eng asosiy xususiyati - guruhlanishi, asosiy tarkibi, bog'-lanish usuli turli tilda bir xil bo'ladi deb hisoblaydi 32, 47]. Maydon sistemasi asosiy xususiyatining turli til uchun umumiyliigi uning asosida yotgan tafakkur kategoriyalarining mushtarakligida namoyon bo'ladi 32, 47]. FunkSIONAL-semantik maydonning turli tildagi farqi alohida tillar qurilishining o'ziga xosligidan kelib chiqadi 32, 48]. Bir tilda mustaqil, grammatik jihatdan kuchli markazlashgan birlik sifatida ajratiladigan maydon boshqa tilda grammatik shakl tizimiga asoslanmagan, kuchsiz markazlashgan bo'lishi mumkin 32, 47]. Demak muayyan tildagi funksional-semantik maydonni tadqiq qilishda shu tilning grammatik qurilishidan kelib chiqib ish yuritish zarur.

O'zbek tilshunosligida grammatik hodisalarni maydon tushunchasiga asoslanib o'rganish 80-yillarga to'g'ri keladi. M. Abduvaliyev bu sohaga bi-rinchi qo'l urdi deyish mumkin. Bu olim tomonidan o'zbek tilida to'siqsizlik maydoni tadqiq etildi [36; 37]. Aniqroq qilib aytganda to'siqsizlik maydoni-ning tuzilishi (strukturasini), uni ifodalovchi vositalarining maydonda tutgan o'rni va o'zaro munosabati o'rganiladi. O'zbek tili materiali asosida hurmat va otning son-miqdor ma'nolari ham grammatik-leksik maydon sifatida tadqiq qilingan [38; 39].

Xulosa qilib aytganda o'zbek adabiy tili grammatik qurilishining tayanch unsuri sifatida ko'pchilik ishda grammatik kategoriya, ayrim ishda grammatik-leksik, funksional-semantik maydon tushunchasidan foydalanilgan. O'zbek adabiy tilidagi so'z va qo'shimcha ma'nodoshligini o'rganishda grammatik-leksik yoki funksional-semantik maydon tushunchasidan foydalanish maqsadga muvofiq chunki ma'nodosh so'z va qo'shimchalar tilning turli sathiga mansub.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Зикриллаев ў. Руҳ ва тил. Монография. -Т.: Фан, 2018. - 464 б. (Zikrillayev G'. Ruh va til. Monografiya. Toshkent, Fan, 2018.)
2. Sayfullayeva R. R., Mengliyev B. R., Voqiyeva G. H., Qurbonova M. M., Yunusov Z. Q., Abuzalova M. Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Т.: Fan va texnologiyalar, 2010. - 404 б.
3. Реформатский А. А. Введение в языковедение. М.: Просвещение, 1967. - 544 с. (Reformatskiy A. A. Vvedenie v yazikovedenie. M.: Prosveshenie, 1967. - 544 s.)
4. Гухман М. М. Грамматическая категория и структура парадигм // Исследование по общей теории грамматики (сборник). - М.: 1968. (Guxman M. M. Grammaticheskaya kategoriya i struktura paradigm. Issledovanie po obshey teorii grammatiki (sbornik). - М.: 1968.)
5. Гузев В. Г., Насилов Д. М. Словоизменительные категории в тюркских языках и понятие "грамматическая категория" // Советская тюркология, 1981, №3. - С. 22 - 35. (Guzev V. G., Nasilov D. M. Slovoizmenitel'nie kategorii v tyurkskix yazikax i ponyatie "grammaticheskaya kategoriya" // Sovetskaya tyurkologiya, 1981, №3. - S. 22-35.)
6. Нигматов Х. Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI - XII веков. Т.: Фан, 1989. - 192 с. (Nigmatov X. G. Funktsionalnaya morfologiya tyurko-yazichnix pamyatnikov XI - XII vekov.- Т.: Fan, 1989. - 192 s.)
7. Кодухов В. И. Общее языкознание. - М.: Высшая школа, 1974. - 303 с. (Koduxov V. I. Obshee yazikoznanie. - М.: Visshaya shkola, 1974. - 303 s.)
8. Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. - М.: Прогресс, 1984. - 400 с. (Gumboldt V. Izbrannie trudi po yazikoznaniyu. - М.: Progress, 1984. - 400 s.)
9. Бодуэн де Куртене. Избранные труды по общему языкознанию. Т. 1. Изд-во Академии наук СССР. - М.: 1963. - 384 с. (Boduen de Kurtene. Izbrannie trudi po obshemu yazikoznaniyu. T. 1. Izd-vo Akademii nauk SSSR. - М., 1963. - 384 s.)
10. Ҳозирги замон ўзбек тили. - Т.: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, 1957. - 527 б. (Hozirgi zamon o'zbek tili. - Т.: O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1957. - 527 b.)
11. Милославский И. Г. Морфологические категории современного русского языка. - М.: Просвещение, 1981. - 246 с. (Miloslavskiy I. G. Morfologicheskie kategorii sovremennogo russkogo yazika. М.: Prosveshenie, 1981. - 246 s.)
12. Гузев В. Г., Насилов Д. М. К интерпретации категории числа имён существительных в тюркских языках // Вопросы языкознания, 1975, № 3. - С. 98 - 111. (Guzev V. G., Nasilov D. M. K interpretatsii kategorii chisla imyon sushestvitelnix v tyurkskix yazikax // Voprosi yazikoznaniya, 1975, № 3. - С. 98 - 111.)
13. Истиқлол ва она тили таълими (тўплам). - Т.: Фан, 2000. - 112 б. (Istiqlol va ona tili ta'limi (to'plam). - Т.: Fan, 2000. - 112 b.)
14. Нигматов Х. Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI - XII веков. - Т.: Фан, 1989. - 192 с. (Nigmatov X. G. Funktsionalnaya morfologiya tyurko-yazichnix pamyatnikov XI - XII vekov. - Т.: Fan, 1989. -192 s.)
15. Никитевич В. М. Грамматические категории в современном русском языке. - М.: Гос. учебно-педагог. изд-во Министерства просвещения РСФСР, 1963. - 245 с. (Nikitevich V. M. Grammaticheskie kategorii v sovremennom russkom yazike. - М.: Gos. uchebno-pedagog. izd-vo Ministerstva prosvesheniya RSFSR, 1963. - 245 s.)
16. Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. - Т.: Ўқитувчи, 1978. - 234 б. (Mirzaev M., Usmonov S., Rasulov I. O'zbek tili. - Т.: 1978. - 234 b.)
17. Штелинг Д. А. О неоднородности грамматических категорий // Вопросы языкознания, 1959, № 1. -С. 55 - 64. (Shteling D. A. O neodnorodnosti grammaticheskix

kategoriya // Voprosi yazykoznaviya, 1959, № 1. - S. 55 - 64.)

18. Исаченко А. В. Бинарность, привативные оппозиции и грамматические значения // Вопросы языкознания, 1963, №2. - С. 39 - 57. (Isachenko A. V. Binarnost, privativnie oppozitsii i grammaticheskie znacheniya // Voprosi yazykoznaviya, 1963, №2. - S. 39 - 57.)

19. Булыгина Т. В. Грамматические оппозиции // Исследования по общей теории грамматики (сборник). - М.: Наука, 1968. - С. 217 - 231. (Buligina T. V. Grammaticheskie oppozitsii. Issledovaniya po obshey teorii grammatiki (sbornik). - M.: 1968. - S. 217- 231)

20. Трубецкой С. Н. Основы фонологии. - М.: Издательство инос-транной литературы, 1960. - 372 с. (Trubetskoj S. N. Osnovi fonologii. - M.: Izdatelstvo inostrannoy literaturi, 1960. - 372 s.)

21. Саидов Ю. Формы глагола, выражающие нереальность в современном узбекском языке // Советская тюркология, 1971, № 1. - С. 49 - 59. (Saidov Y. Formi glagola, virajayushie nerealnost v sovremenном узбекском yazike // Sovetskaya tyurkologiya, 1971, № 1. - S. 49 - 59.)

22. Шендельс Е. И. О грамматической полисемии // Вопросы языкознания, 1962, № 3. - С. 47 - 55. (Shendels E. I. O grammaticheskoy polisemii // Voprosi yazykoznaviya, 1962, № 3. - S. 47 - 55.)

23. Бондарко А. В. Грамматическая категория и контекст. - Л.: Наука, 1971. - 115 с. (Bondarko A. V. Grammaticheskaya kategoriya i kontekst. - L.: Nauka, 1971. - 115 s.)

24. Хожиев А. Хозирги ўзбек тилида форма ясалиши. - Т.: Ўқитувчи, 1979. - 82 б. (Hojiyev A. Hozirgi o'zbek tilida forma yasalishi. T.: O'qituvchi, 1980. - 82 b.)

25. Шоабдурахмонов Ш. ва б. Хозирги ўзбек адабий тили. - Т.: Ўқитувчи, 1980. - 448 б. (Shoabdurahmonov Sh. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T.: O'qituvchi, 1980. - 448 b.)

26. Нигматов Х. Г. Морфология языка восточно-тюркских памятников XI - XII веков. Автореф. дисс. докт. фил. наук. - Баку, 1978. - 48 с. (Nigmatov X. G. Morfologiya yazika vostochno-tyurkskix pamyatnikov XI - XII vekov. Avtoref. diss. dokt. fil. nauk. - Baku, 1978. - 48 s.)

27. Нурманов А. Н. Проблемы системного исследования синтаксиса узбекского языка. - Т., 1982. (Nurmanov A. N. Problemi sistemnogo issledovaniya sintaksisa uzbekskogo yazika. - T., 1982.)

28. Бондарко А. В. О структуре грамматических категорий (Отношения оппозиции и неопозитивного различия) // Вопросы языкознания, 1981, № 6. - С. 17 - 28. (Bondarko A. V. O strukture grammaticheskix kategoriy (Otnosheniya oppozitsii i neoppozitivnogo razlichiya) // Voprosi yazykoznaviya, 1981, № 6. - S. 17 - 28.)

29. Ярцева В. Н. Иерархия грамматических категорий и типологическая характеристика языков. // Типология грамматических категорий (сборник). - М., 1975. (Yartseva V. N. Ierarxiya grammaticheskix i tipologicheskaya xarakteristika yazykov. Tipologiya grammaticheskix kategoriy (sbornik). M., 1975.)

30. Зикриллаев ў. Н. Фельнинг шахс, сон ва ҳурмат категориялари системаси. - Т.: Фан, 1990. -112 б. (Zikrillayev G' N. Fe'ning shaxs, son va hurmat kategoriyalari sistemasi. - T.: Fan, 1990. -112 b.)

31. Бондарко А. В. Теория морфологических категорий. - Л.: Наука, 1976. - 256 с. (Bondarko A. V. Teoriya morfologicheskix kategoriy. L.: Nauka, 1976. - 256 s.)

32. Бондарко А. В. Принципы функциональной грамматики и вопросы аспектологии. - Л.: Наука, 1983.- 208 с. (Bondarko A.V. Printsipi funktsionalnoy grammatiki i voprosi aspektologii. - L.: Nauka, 1983. ?208 s.)

33. Бондарко А. В. Функциональная грамматика. - Л.: Наука, 1984. - 134 с. (Bondarko A. V. Funktsionalnaya grammatika. - L.: Nauka, 1984. - 134 s.)

34. Щур Г. С. Теории поля в лингвистике. - М.: Наука, 1974. - 255 с. (Shur G. S. Teorii polya v lingvistike. - M.: Nauka, 1974. - 255 s.)
35. Гулыга Е. В., Шендельс Е. И. Грамматико-лексические поля в современном немецком языке. - М.: Просвещение, 1969. - 184 с. (Guliga E. V., Shendels E. I. Grammatiko-leksicheskie polya v sovremennom nemetskom yazike. - M.: Prosvesheniye, 1969. 184 s.)
36. Абдувалиев М. Тўсиқсизлик майдони ва уни ташкил этувчи синтактик бирликлар // Ўзбек тили ва адабиёти, 1980, 4-сон. - 62 - 66-б. (Abduvaliyev M. To'siqsizlik maydoni va uni tashkil etuvchi sintaktik bir-liklar // O'zbek tili va adabiyoti, 1980, 4-son. - 62 - 66-b.)
37. Абдувалиев М. А. Сложноподчинённые предложения с придаточным уступительным в разносистемных языках. Дисс. канд. филол. наук. Т., 1989. 186 с. (Abduvaliyev M. A. Slojnopodchinyonnie predlojeniya s pridatochnim ustupitelnim v raznosistemnix yazikah. Diss. kand. filol. nauk. T.: 1989. 186 s.)
38. Ҳожиёва Ҳ. Я. Ўзбек тилида ҳурмат майдони ва унинг лисоний-нутқий хусусияти. Фил. фан. номз. дисс. - Сам., 2001. - 130 б. (Hojieva H. Y. O'zbek tilida hurmat maydoni va uning lisoniy-nutqiy xususiyati. Fil. fan. nomz. diss. - Sam., 2001. - 130 b.)
39. Сафаров Ф. С. Ўзбек тилида сон-миқдор микромайдони ва унинг лисоний-нутқий хусусияти. Фил. фан. номз. дисс. - Сам., 2004. - 135 б. (Safarov F. S. O'zbek tilida son-miqdor mikromaydoni va uning lisoniy-nutqiy xususiyati. Fil. fan. nomz. diss. - Sam., 2004. -135 b.)